

13-dars. O'rganilganlarni takrorlash



1. **Sonlarni** o'qing. Har bir sonning yozuvida **5 raqami** nimani bildiradi?

5 000

500 000

500

50

50 000



2. **Sonli tengsizliklarni** yozing. Noto'g'ri tasdiqni toping.

a) Uch ming besh yuz ikki uch ming uch yuz beshdan katta.

b) Yigirma besh ming sakkiz yuz qirq yetti o'ttiz besh ming ikki yuz yigirma to'qqizdan kichik.

d) Yuz ming yigirma bir yuz yigirma mingdan katta.

e) Yetti yuz to'qson uch yetti ming to'qqizdan kichik.



3. Ifodalarning qiymatini hisoblang va ularni taqqoslang.

$$4 \cdot 6 + 309 \quad \square \quad 390 - 72$$

$$503 - 64 : 8 \quad \square \quad 467 + 18$$

$$940 - 8 \cdot 9 \quad \square \quad 899$$

$$132 + 54 : 9 \quad \square \quad 148$$



4. Rasmlarda O'zbekistonning eng baland tog'laridan ba'zilar ko'rsatilgan. Ularning balandliklarini **kamayish** tartibida ayting.



Beshtor,
4 299 m



Katta Chimyon,
3 309 m



Adelung,
4 301 m



5. Tog'dagi dam olish maskaniga 36 nafar sayyoh keldi. Ulardan 12 nafari katta chodirga joylashdi, qolganlari esa 8 ta kichik chodirga baravardan bo'linishdi. Har bir kichik chodirga necha nafardan sayyoh joylashgan?



6. Dastlab **qavs ichidagi amallarni** hisoblang, keyin tenglamalarni yeching.

$$(42 - 38) \cdot x = 36$$

$$y : (91 - 89) = 27$$



B

7. **Amallarni** bajaring va **taqqoslang**.

- a) $3 \text{ m } 4 \text{ dm } 8 \text{ cm} + 2 \text{ m } 9 \text{ dm } 8 \text{ cm}$ $7 \text{ m } 1 \text{ dm } 6 \text{ cm}$
 b) $6 \text{ m } 2 \text{ dm } 1 \text{ cm} - 1 \text{ m } 3 \text{ dm } 4 \text{ cm}$ $4 \text{ m } 1 \text{ dm } 3 \text{ cm}$
 d) $1 \text{ m } 9 \text{ dm } 7 \text{ cm} + 1 \text{ m } 4 \text{ dm } 5 \text{ cm}$ $2 \text{ m } 4 \text{ dm } 3 \text{ cm}$
 e) $9 \text{ m } 1 \text{ dm } 5 \text{ cm} - 7 \text{ m } 2 \text{ dm } 8 \text{ cm}$ $2 \text{ m } 1 \text{ dm } 7 \text{ cm}$



B

8. **Ifodalar** tuzing va ularning qiymatini hisoblang.

- a) 245 soniga 7 va 4 sonlari ko'paytmasini qo'shish.
 b) 876 sonidan 27 va 3 sonlari bo'linmasini ayirish.
 d) 902 va 898 sonlari ayirmasini 8 soniga ko'paytirish.
 e) 27 va 15 sonlari yig'indisini 6 soniga bo'lish.



D

9. Sonlardagi ayrim raqamlar **yulduzchalar** bilan almashtirilgan. Sonlardan qaysilarini shu ko'rinishda taqqoslash mumkin?

$32^* \square 99^*$

$283^{**} \square 27^{***}$

$765^* \square 765^{**}$

$627^* \square 6270$


$3^*9^{**} \square 4^{****}$

$9^{**} \square 1^{****}$



D

10. Bo'sh doirachalar ichiga **0** dan **8** gacha bo'lgan sonlarni shunday joylashtiringki, natijada to'rtburchakning har bir tomoni bo'ylab sonlar yig'indisi **12** ga teng bo'lsin.



11. Ifodalarning qiymatini hisoblang va ularni taqqoslang.

$72 : 8 + 495 \square 807 - 328$

$678 + 32 : 4 \square 705 - 2 \cdot 9$

$319 - 3 \cdot 7 \square 282$

$144 + 63 : 9 \square 109 + 5 \cdot 5$

12. Sayyohlar guruhida 28 nafar erkak bor, ayollar esa erkaklarga nisbatan 4 marta kam. Ayollar erkaklardan necha nafar kam?

